

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BOSHQARUVIDA IJTIMOIY-  
PSIXOLOGIK USULLAR QO'LLANILISHINING NAZARIY ASOSLARI**

**Baxtiyorov Bahodir Baxtiyor O'g'li**

*Oriental Universiteti Ta'lismenejmenti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lismenejmentining ijtimoiy-psixologik usullari, boshqaruv psixologiyasi hamda boshqaruv xodimlarining psixologik kompetensiyalari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *boshqaruv, uzluksiz ta'lism, ijtimoiy-psixologik usullar, ta'lism-tarbiya.*

**Аннотация:** В данной статье говорится о социально-психологических методах управления образованием, психологии управления и психологических компетенциях управленческого персонала.

**Ключевые слова:** менеджмент, непрерывное образование, социально-психологические методы, образование.

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo'ysunishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan teppa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman,adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnak va namuna bo'lishi zarur."<sup>1</sup>

Avvalo har bir ta'lismuassasasida ta'lism-tarbiya jarayoni zamonaviy boshqaruv asosida tashkil etilishi lozim.

Uzluksiz ta'lism jarayonida pedagogik kadrlar bilan ishlash va ularni boshqarishda psixologiya fanining o'rni muhimdir. Chunki asosiy ishlab chiqarishni harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan insonni shakllantirishda va uni regulyatsiyasida ta'linda boshqaruv psixologiyasi alohida o'rinish tutadi. Inson shaxsini tarkib topishi va faoliyatini hamda muloqot jarayonlarini rivojlanish muammosini, inson psixikasini rivojlanishi qonunlarini hisobga olmay oqilona hal qilib bo'lmaydi. Rahbar boshqaruvni, insonlar psixologiyasini chuqur va puxta o'zlashtirgan taqdirdagina ta'lismuassasasida ta'lism-tarbiya, kasb egallash jarayonlarini to'g'ri, odilona tashkil eta oladi. Bu esa yosh avlodni har tomonlama kamolotga erishgan, yetuk mutaxassis etib tayyorlashda o'zining munosib hissasini qo'shadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, psixologiya fanini o'zlashtirish rahbarlar uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. Bunga sabab, birinchidan, insonning, rang-barang ruhiy olami, ko'zga ko'rinas ichki-xis

<sup>1</sup> <http://old.xs.uz/index.php/homepage/zhamiyat/item/12316-1> va <http://uza.uz/oz/society/ra-bar-yuksak-manavyiyatli-ar-bir-ishda-barchaga-ibrat-blash-29-11-2017> (murojaat sanasi 30.10.2019-yil)

tuyg'ulari, kechinmalari haqidagi murakkab fanligi, ikkinchidan, eng yangi, zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalarning yetishmasligidir.

Ma'lumki, boshqaruvning asosini inson bilan inson o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi tashkil etadi. Demak boshqaruv jarayonining samaradorligi insonlarga so'z orqali ta'sir etish uquviga egaligi, ya'ni to'g'ri muloqotni tashkil etishdan iboratdir.

Xususan, uzliksiz ta'lim tizimida bu muammo dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Dunyoqarashi keng, zamon o'zgarishlariga yangi ko'z bilan qaraydigan, uddaburon va jamiyatni yuqori cho'qqilarga ko'tarishga qodir mutaxassis kadrlarni tayyorlash bugungi kunda mazkur soha xodimlarining oldida turgan eng muhim va ma'suliyatli vazifadir. Endilikda malakali, har bir ishga ijodiy yondashuvchan, ma'suliyatli, tashkilotchilik qobiliyati yuqori darajada shakllangan, shioatli rahbar xodimlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.

"O'zgalar psixologiyasini bilish ular ustidan hukmronlikning yagona yo'lidi", degan edi ingliz olimlari. Endryu Karnegi esa umrining oxirida o'zining qabr toshiga "Bu yerda bir umr o'zidan aqlliroy bo'lganlarni o'ziga bo'ysundira olgan inson yotibdi" deb yozib qo'yinglar deb vasiyat etgan. Demak, u ham o'z yo'lida xodimlar psixologiyasini yaxshi bilgan va ularga o'z vaqtida tashabbus ko'rsatish imkonini bera olgan kamtar shaxs bo'lgan. Darhaqiqat o'zgalar psixologiyasini bilish ular bilan muloqot hamda kommunikatsiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish jamoani muvaffaqiyatli tarzda olg'a yetaklashda muhim omillardan biri hisoblanadi.<sup>2</sup>

Boshqarish muammolari psixologiyadan tashqari, yana boshqa fanlar tomonidan xam o'r ganiladi. Bular tarix, iqtisod, falsafa, huquqshunoslik va boshqa fanlaridir. Bu fanni o'ziga xos tomonidan o'rgansa, psixologiya sof psixologik tomondan o'rganadi. Boshqaruv tushunchasining paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq xolda amalga oshadigan jarayondir. Boshqaruv ilmining mazmun va moxiyati kishilarni yoki jamoa mexnat faoliyatini bir joyga nomlash, boshqarish bilan bog'liqdir. Jamoa yiriklashgan sari boshqaruvning vazifalari murakkablashadi. Boshqaruv jarayonining murakkablashuvi boshqaruv ilmidan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Boshqaruv tizimi ochiq murakkab tizim bo'lib, u ikki qismdan ya'ni obyekti va subyektdan iborat bo'ladi.

Boshqaruv psixologiyasini o'rganuvchi obyekti va subyekti aloxida shaxsdir. Ularning psixologik xolatlari, ulardag'i ayrim jarayonlar va vazifalar boshqaruv obyekti deb aytildi.

Boshqaruvning subyekti o'rganilganda esa odatda, boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi. Obyekt bu boshqariladigan tizim, subyekt esa boshqaruvchidir. Boshqaruv ilmi quyidagi ko'rinishlarga bo'linadi.

1. Boshqaruv nazariyasi
2. Boshqaruvni taxlil qilish
3. Boshqaruv uslublari to'g'risidagi bilim

<sup>2</sup> Xolbekov A., Jumayev R., Umarova N. Boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlari. – T.: -- G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. – 608 b.;

4. Boshqaruv to'g'risidagi bilim
5. Boshqaruv psixologiyasi to'g'risidagi bilim

Boshqaruv ilmining tashkiliy va psixologik bo'limi boshqaruv tizimining markaziy qismi bo'lib, jamoa boshqaruvini, ishlab chiqarishni belgilaydi.

Boshqaruvpsixologiyasi predmetini ta'riflash bo'yicha bir qancha shakldagi muloxazalar mavjud bo'lsada lekin ularning birontasi xam uning tub ma'nodagi xususiyati va moxiyatini ochish imkoniyatiga ega emas. Asrimizning 60-70 yillarida berilgan ta'riflar xilma-xil bo'lib, ular soxaning yo'nalishi mazmunini chuqurroq yoritilishiga qaratilgandir.

*Birinchi ta'rif:* Boshqaruv psixologiyasining predmeti – rahbar kadrlar va ijrochilarining psixologik xususiyatlari, yaxlit tizimdagi hamkorlik faoliyatida ularning o'zaro aloqasini o'rnatishdir. *Ikkinci ta'rif:* Boshqaruv psixologiyasining predmeti – guruh va ommaning psixologik xususiyatlari, ularning shaxs ongiga va xulqiga ta'sirini tekshirishdan iboratdir.<sup>3</sup>

Bizningcha, bu ta'riflarning xech biri boshqaruvning psixologik moxiyati va uning tadqiqot ko'lagini ochish, talqin qilish qudratiga ega emas. Ushbu ta'riflarda Hamkorlik faoliyatining mazmuni, uning bosqichlari, fazalari, shakllari shaxslararo munosabatda o'zaro ta'sir xususiyatlari, insonda ijtimoiylashuvning tezlashuvi, ongning rivojlanishi, inson va texnika tizimi bilan bog'liq bo'lgan qator muammolar e'tiborga olinmagan.

Mukammal ta'rifda bizningcha quyidagilar qamrab olinishi va yoritilishi kerak deb o'laymiz:

- Hamkorlik faoliyatida shaxsning roli.
- Shaxs va guruhning (rahbar va tobe kishilarning) motivatsion, emotsiyon va hissiy xususiyatlari.
- Shaxs va jamoani nazorat qilish.
- Rahbar psixologiyasi
- Rahbarning tarbiyaviy ta'sir subyekti ekanligi
- Rahbarning siyosiy faolligi, status roli, huquqi, imtijozi, vazifasi.
- Boshqaruvchanlik muomalasi
- O'zaro munosabatlar (men, sen, u, biz, siz, ular, bizlar)
- Rahbarning shaxsiga to'g'ri keluvchi lavozimlar.
- Nizoli vaziyatlar va uni bartaraf etish yo'llari va xokazo.

Ushbulardan kelib chiqib boshqaruv psixologiyasiga nisbatan zamonaviy to'laqonli ta'rif berish mumkin.

Jamoa boshqaruvining hamkorlik faoliyatida shaxsning xulqiga va ongiga guruhiy va ommaviy ta'sir o'tkazishning psixologik xususiyatlarini, rahbar va ijrochi o'rtasidagi muomala munosabatlarini, shaxslararo munosabat bosqichlarini, rahbarning psixologik va individual xususiyatlarini o'rganish boshqaruv psixologiyasining predmetidir. Bundan tashqari boshqaruv psixologiyasi predmeti tarkibiga amaliy va

<sup>3</sup> <https://hozir.org/boshqaruv-psixologiyasi-reja.html?page=3>

nazariy ko'nikmalarni egallash xususiyatlari idora qilishning qonuniyatlarini, psixologik moslik, jipslikni ta'minlovchi omillar va mexanizmlarni o'rganish singari bir qator soxalarni xam qidirish zarur. Xuddi shu boisdan, boshqaruv psixologiyasi predmetini cheklash, birlamchi va ikkilamchi, asosiy va yordamchi bevosita yo'llari xamda vositalari yuzasidan muloxaza yuritish, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun sun'iy to'siqni vujudga keltiradi deyish mumkin.

Boshqaruv psixologiyasining vazifalari boshqarishning psixologik, psixofiziologik, fiziologik, mexanizmlarini, qonuniyatlarini, jamoa jipsligini hamkorligini ta'minlovchi obyektiv va subyektiv omillarini, hamkorlikning tarkibiy, qismlarini insonning ichki reguliyativ funksiyalarini (motiv, xis-tuyg'u, kechinmalar), bilish jarayonlarini, jamoa muhiti va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarining takomillashuvini o'rganish xamda qonuniyatlarini ochib berishdan iborat.

Boshqaruvning subyekti o'rganilganda odatda boshqaruvchi shaxs yoki odamlar guruhi nazarda tutiladi. Guruhni boshqaruvchi shaxs esa "lider" yoki "boshliq" deb xisoblanadi. Boshqaruv psixologiyasida liderlik muammosi juda ko'p olimlarning e'tiborini o'ziga tortgan. B.D.Parigin, Q.Berd, A.N. Leontev liderlik uslublari xaqida, M.Forverg, M.Yu.Jukov shu muammolar ustida ilmiy ishlar olib borishgan.

Boshqarish psixologiyasi o'z faoliyatida tadqiqot metodlaridan foydalangan holda ish yuritadi. Shu tufayli boshqaruv faoliyati yuzasidan olingan ma'lumotlar, ishlab chiqilgan tadbirlar ilmiy asosligi bilan muhim kasb etadi. Boshqaruv psixologiyasida umumiyligi va ijtimoiy psixologiya metodlaridan foydalaniladi. Xususan kuzatish, test, anketa, suhbat, faoliyat maxsulini o'rganish, arxiv bilan ishslash, sotsiometriya va boshqa shu kabi metodlar boshqarish psixologiyasi uchun tadqiqot metodlari sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktab rahbarlari boshqaruv funksiyalarining integrativ sifatlarini tavsiflovchi xususiyatlar: mактаб boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan korporativ foydalanish, boshqaruvning metodika va usullaridan samarali foydalana olish, boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni, mактаб faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilashni ko'rsatadi.

Boshqaruv algoritmi – bu mактаб rahbari boshqaruv faoliyatining ketma-ketligi (izchilligi) bo'lib, u 7 ta bosqichdan iborat:

- Pedagogik jarayonning holati bo'yicha ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishslash va obyektiv baholash;
- Boshqaruv faoliyatining maqsadini belgilash;
- Boshqaruv faoliyatini oldindan ko'rish (anglash) va rejalashtirish;
- Kadrlar tanlash va joy-joyiga qo'yish;
- Jamoa faoliyatini nazorat qilish va tashxis;
- Jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirish;
- Mактаб faoliyatining rivojlanish moyilligi va dinamikasini aniqlashdan iborat;

Mazkur bosqichlar izchilligida boshqaruv metodlari, ma'muriy, ijtimoiy-psixologik, iqtisodiy, shuningdek axborotlar to'plash metodlarini qo'llash yordamida yuqorida keltirilgan funksiyalarning bajarilishi amalga oshiriladi.<sup>4</sup>

Ta'lim menejmentida boshqaruv metodlari muhim ahamiyat kasb etib, ular boshqaruv jarayonida xodimlar faoliyatini tashkil etish va ularni muvofiqlashtirishda qo'llaniladigan ta'sir etish yo'llari va usullarining yig'indisi hisoblanadi. Boshqaruv metodlari asosini mazkur ta'sir ko'rsatish usullari majmui, ya'ni ta'sir ko'rsatish mexanizmi tashkil etadi. Boshqarish metodi boshqarish faoliyatini amalga oshirish usullari va yo'llari majmuidan, boshqarish tizimiga samarali, maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishdan, ya'ni boshqarish funksiyalarini amalga oshirish mexanizmidan iboratdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir: A.Xolbekov. – T., 2006.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Ta'lim menejmenti // O'qituvchi, - 2007.
3. Narzulla Boymurodov. Rahbar psixologiyasi: Oliy ta'lim, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmalarining ma'muriy xodimlari uchun qo'llanma. – T., 2007.
4. Psixologiya menedjmenta / Pod red. prof. G.S. Nikiforova. – 3-ye izd. – Xarkov, 2007.
5. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. Qo'llanma. – T.: "Voris nashriyoti". 2006.

<sup>4</sup> Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. Qo'llanma. – T.: "Voris nashriyoti". 2006. -- 38 b.;